

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Muxsinova Musallamxon

TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI

(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) 5-7

TEXNIKA FANLARI

Baxriddinov Nodirbek

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN

QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSh VA YeVROPA TAJRIBASI 8-11

TARIX FANLARI

To'uchiyeva Dilnoza

ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR) 12-19

Норов Шухрат

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ

МОЛОДЕЖИ 20-25

Bazarbayeva Nilufar

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA 26-29

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI

TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI 30-34

Кайыбеков Парахат

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ АВТОМОБИЛЬНЫМИ ТРАНСПОРТНЫМИ

УСЛУГАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ 35-41

Ibragimov Jakhongir

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM

O'ZGARISHLARI TA'SIRINI BAHOLASH 42-45

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI 46-48

Ro'ziyev Maqsud

ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI 49-52

FILOLOGIYA FANLARI

Tursinbaev Ilham

BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI 53-57

Pulatjonova Muxtasar

HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER

CORPUS ANALYSIS 58-60

Abdulxayeva Nodirabegim

TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION 61-63

Absalomova Feruza

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST 64-68

GEOGRAFIYA FANLARI

Nazirov Mirjalol

FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA
HUDUDIIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI 69-71

YURIDIK FANLARI

Tog'onova Jemala

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI 72-76

Shomurodov Sanjar

SUN'IY INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI 77-80

Qilichev Nosirbek

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT
SIFATIDA 81-84

Xolmo'minova Barchinoy

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 85-90

PEDAGOGIKA FANLARI

Таджибаева Альбина

РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК..... 91-96

Собирова Гулибарно

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ..... 97-101

TIBBIYOT FANLARI

Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza

ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI 102-104

PSIXOLOGIYA FANLARI

Kurbonov Munis

KASBIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH..... 105-107

TARIX FANLARI

ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR)

To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi

QarDU doktoranti

Tel: +998974371115

E-mail: dilnozameliyeva35@gmail.com

ORCID: ID 009-0002-7712-8769

Annotatsiya. Mazkur maqolada, Zomin tumanining 2013-2024-yillaridagi iqtisodiy holati, manbalar asosida tahlil qilingan. Tuman iqtisodiy sohalaridagi o'zgarishlar, yutuqlar bilan birga, yo'l qo'yilgan kamchiliklar, mavjud muammo va masalalar ham bayon qilingan. Shuningdek, iqtisodiyotni barqarorlashtirishga oid respublikamiz miqyosida qabul qilingan qonun va qarorlarning tumandagi ijrosi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, mikroiqtisodiyot, kichik biznes, kredit, ssuda, investitsiya, dastur, korxona, sanoat, foiz, kapital.

ON THE ECONOMIC HISTORY OF ZAOMIN DISTRICT (2013-2024)

Toychiyeva Dilnoza Ikrom qizi

QarSU PhD student

Annotation. This article analyzes the economic situation of the Zamin district in 2013-2024 based on sources. Along with changes and achievements in the economic sectors of the district, shortcomings, existing problems and issues are also described. The implementation of laws and resolutions adopted at the level of our republic regarding the stabilization of the economy in the district is also highlighted.

Key words: entrepreneurship, microeconomics, small business, credit, loan, investment, program, enterprise, industry, interest, capital.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-03>

Zomin tumanining muhim sohalaridan biri bu – iqtisodiy tarmoqlar hisoblanadi. Chunki, aholining farovon yashashi tumanning iqtisodiy jihatdan barqarorligiga bog'liq. Shu bois, mazkur sohadagi islohotlar doimiy ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Mustaqillikning ilk yillarida boshlangan tumanni rivojlantirishga oid ishlar keyingi o'n yilliklarda ham davom ettirildi. Jumladan, 2013-yil Zomin tumanining iqtisodiy o'sishini ta'minlash maqsadida dastur va rejalar e'lon qilingan, va bu qilinishi zarur ishlarning yo'l xaritasi bo'lib xizmat qilgan.

Zomin tumanining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga doir 2013-yil uchun mo'ljallangan ish rejasi[1]da bir qator vazifalar belgilab berilgan. Qarorga muvofiq, tuman hokimligi, korxona va tashkilot rahbarlariga, tumandagi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalari obyektlari qurilishi, rekonstruksiya va modernizatsiyasiga investitsiya kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilish, vazirliklar, qo'mitalar va kompaniyalar tomonidan ajratilgan mablag'larni tumanga taalluqli qismini to'la o'zlashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi boshqa topshiriqlar ijrosini amalda bajarish ko'zda tutilgan. Zomin tumaniga tashqi investitsiyalarni jalb etishga alohida urg'u berilgan. Boisi, O'zbekiston Respublikasining 2013-yilgi "Investitsiya dasturi to'g'risida"[2] gi qarori ijrosini ta'minlash va tuman iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy

investitsiyalarni, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, iqtisodiy tarmoqlarga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda shu asosda tuman iqtisodiyotining yanada rivojlantirish maqsad qilingan.

Darhaqiqat, investitsiyalar, ayniqsa, chet el kapitalining hududlarga kiritilishi tumanning iqtisodiy ishlab chiqarish va daromad manbalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda, xorijliklar uchun tumanning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa o'ziga xos imkoniyatlarini namoyon qilish va manfaatli shartnomalar qilishga erishish talab etiladi. 2013-yil davomida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, tuman iqtisodiyotida birmuncha o'sishlar kuzatilgan. Masalan, o'tgan yilgi ko'rsatkichlarga nisbatan, sanoat mahsulotlari 42.5 foizga, iste'mol mollari ishlab chiqarish 13.7 foizga, yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari 5 foizga, chakana tovar aylanishi 16.4 foizga oshgan.[3]

Sanoat sohasida 914 ming dollar qiymatga ega 15 ta loyiha amalga oshirilib, (4 ta yengil sanoat, 6 ta oziq-ovqat va 5 ta nooziq-ovqat) yangi ish o'rinlari yaratilishiga sabab bo'ldi. O'rta va kichik biznesga ega korxonalar soni, 560 tadan 601 taga ko'paygan. Iqtisodiy tarmoqlardagi kichik biznesning ulushi 96.1 foizni tashkil qilgan. Bunda banklar tomonidan ham ularga yordam ko'rsatilib, jami 12 mlrd 165 mln so'mlik bank kreditlari ajratilishi, tuman aholisi uchun 734 ta yangi ish o'rinlarining ochilishiga va aholi moddiy daromadlarining yaxshilanishiga sabab bo'lgan.[4]

Ammo, mazkur yutuqlar bilan birga kamchiliklar ham bo'lganligi hisobotlar davrida, ochiq, tanqidiy ruhda ta'kidlangan. Ayniqsa, bu Zomin tumaniga kiritilishi lozim bo'lgan investitsiya dasturlarining amalda to'liq bajarilmasligi, tuman imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana olmaslik, investitsiya dasturlarining amaliy ijrosi va reja o'rtasidagi tafovutlarning kattaligi bo'lgan. Yana bir jihat, sanoat salohiyatini oshirish dasturlarini amalga oshirish, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ular bilan ichki bozorni to'ldirish va hududiy eksportni rivojlantirish bo'yicha yuzaga kelgan muammo va kamchiliklar yetarlicha iqtisodiy-ilmiy tomonlama tahlil qilinmagani, iqtisodiy sohalaridagi oqsoqliklarga sabab bo'lmoqda. Obyektiv va subyektiv sabablar esa, tuman rivojini ortga tortishiga haqqi yo'qligi hokimlik yig'ilishlarida aytib o'tilgan. Bu davrda tumandagi 57 ta sanoat korxonasidan 25 tasining faoliyati to'xtatilganligi, xorijiy sarmoya ishtirokidagi ikkita korxonaning bittasida ishlar to'xtab qolganligi, bu esa navbatdagi chet el kapitalining kirishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Dasturlarda belgilangan topshiriqlarni og'ishmay bajarish, bu borada mutasaddi xodimlarda talabchanlik, fidoyilik kabi xislatlar bo'lishi ma'ruzalarda takror-takror aytib o'tilgan.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, kichik va o'rta biznes vakillarining iqtisodiy ulushlari hisobiga 2014-yilda Zomin tumani iqtisodiy tarmoqlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etilgan. Va mazkur moliyaviy imkoniyatlar zaruriy xarajatlar smetasiga sarflangan. Jumladan, 2014-2016 yillarda Zomin tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturi[5]ga ko'ra, tuman aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash, elektr energiya ta'minotini yaxshilash, qishloqlarni gazlashtirish, xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarni ta'mirlash, (tuman hududidan o'tuvchi 4p-40-Dashtobod-Zomin-Sufa-Baxmal-G'allaorol avtomagistrali) sanoat salohiyatini oshirish, aholiga servis va maishiy xizmat ko'rsatish ahvolini yaxshilash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sug'orish tarmoqlari uchun zaruriy xarajatlarni sarflash, o'zini-o'zi boshqarish organlarining moddiy-texnik bazasini yangilash, ijtimoiy va tibbiyot massalarining holatini takomillashtirish

kabilardir. Albatta, bu rejalarining barchasi muhokamadan o'tgan, tasdiqlangan loyihalarga asoslanib bajarilgan. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, sanoat korporatsiyasini rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha, Zomin tumanida korxonalar o'rtasida o'zaro munosabatlar hamda shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi yaxshilangan. 2014-yil oktyabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan respublika san'at yarmarkasida 11 ta korxonalar tomonidan 900 mln so'mlik shartnomalar tuzilib, ijrosi to'liq ta'minlangan.

Bundan tashqari, 2014-yil yanvar-dekabr oylari davomida tumanda jami 3745 ta yangi ish o'rinlari tashkil etish rejalashtirilgan bo'lsa, shulardan ayollar uchun belgilangan reja 1763 tani va 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun belgilangan reja 2296 tani tashkil qilgan. Kamchiliklar ham kuzatilgan, masalan, yil mobaynida 664 ta kichik biznes subyektlari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shulardan 245 tasi (36,9%) faoliyat ko'rsatmagan, 47 tasi esa bir muddat ishlab to'xtagan. Eksport ham qoniqarli darajada bo'lmagan. Hisobot va manbalarda eksport dasturi 110,7 foizga bajarilgan. Ammo, "Zomin jilg'asi", f/x, "Zomin meva-sabzavot va uzumchilik" MCHJ lar tomonidan mutlaqo mahsulot eksport qilinmagan.[6]

Kamchiliklarni keyingi davrlarda bartaraf etish yo'llari izlangan. Jumladan 2015-yil tuman byudjet parametrlarini qabul qilishda bu jihatlarga alohida e'tibor berilgan, shuningdek, demokratik bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish konsepsiyasi qoidalariga amal qilish yuzasidan vazifalar belgilangan bo'lsa, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni kengaytirish hisobiga, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yanada oshirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash va faol diversifikatsiyalash axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash borasida tuman iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilgan. Xususan, sanoat sohasida 17 mlrd 240 mln so'm mablag'lar sarflanib, 14 ta loyihalar amalga oshirilgan. Jumladan ikkita mavjud korxonalar modernizatsiya qilingan.

Sanoat sohasida tumandagi "Dashtobod sement" korxonasida yiliga 250 ming tonna sement, "Trust electronics"(Zomin Samsung) MCHJ shaklidagi xorijiy korxonasida elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.[7] Sobiq traktor parki o'rnida ishga tushga ushbu korxona, chet el kapitali hamkorligida ishga tushirilgan bo'lib, "Samsung" brendi ostida kompyuterlar uchun zamonaviy monitor ishlab chiqaradi. 2015-2016 yillardagi korxonaning yillik aylanma mablag'i 30 mlrd so'mni tashkil etgan. Korxona ishchilarining 85 foizini yoshlar tashkil qilishi esa, quvonarli.[8] Chunki, nafaqat oliy ma'lumotli, balki, tumandagi o'rta maxsus ta'lim bitiruvchilarining ish bilan ta'minlashi muhim vazifalardan biri edi.

Zomin tumanidagi bu ko'rsatkichlar yildan-yilga o'sib borishi uchun soha mutasaddilari va tub aholi mehnatlarini ham alohida ta'kidlash lozim. Ammo, bu rivojlanishlarni, hududlarda iqtisodiy o'sishning jahon standartlari darajasida deya aytolmas edik.

2016-yil mobaynida ham iqtisodiy sohaning asosiy omili sifatida sanoat ishlab chiqarish, kichik va o'rta biznes, eksport masalalarini yaxshilashga harakat qilingan. Chunonchi, kichik biznes vakillarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan 43 mlrd 640 mln kreditlar ajratilgan. Sanoat ishlab chiqarish 112,0 foizga o'sgan. Zomin tumanida mahalliyashtirish dasturi doirasida 1 ta hududiy tasarrufdagi korxonaning o'zidayoq 3 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, eksport qilingan. 2016-yil tuman byudjeti daromadlari 29 mlrdni, xarajatlari esa 83 mlrd so'mni tashkil etib, respublika

byudjetidan 53 mlrd miqdorda subvensiya ajratilgan yoki jami xarajatlar ulushi 64,4 foizni tashkil etgan.[9] Mazkur ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tuman barcha xarajatlarini o'zi qoplay olmagan, aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlar uchun respublikadan yordam olgan. Nafaqat, Zomin tumani balki, O'zbekistonning boshqa barcha hududlarida ham mahalliy aholini tuman iqtisodiyoti yetarli darajada ta'minlay olishi, respublikaning jahon hamjamiyati miqyosida har tomonlama o'sishiga zamin yaratib bergan bo'ladi. Iqtisodiy o'sish bilan birga tumanda sohada oqsoqliklarga ham yo'l qo'yilgan. Jumladan, ro'yxatdan o'tgan korxonalarning barchasida to'liq faoliyat aks etmaganligi, mavjudlarining esa, debitorlik qarzlari oshib borganligi, shuningdek, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, aholi hayoti darajasi va sifatini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning natijadorligi yuzasidan amaliy nazorat ta'minlanmaganligi oqibatida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti elektron qabulxonasiga 2016-yilda 318 ta murojaat kelib tushganligi ham, aslida insonlarning qaysidir muammolari o'z yechimini topmaganligi isbotidir.

Tumandagi iqtisodiy islohotlar 2017-yilga kelib yangicha tus olgan. Barcha sohalar kabi iqtisodiyotni ham erkinlashtirish siyosatidan kelib chiqib, yil avvalidagi reja va prognozlar va yil yakunidagi amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlarda ham ijobiy o'zgarishlar sezilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvardagi majlisida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" – nomli ma'ruzasi[10]da 2016-yilda amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar haqida batafsil to'xtalib o'tib, 2017-yilning eng muhim ustuvor vazifalari belgilab berilgan. Vazifalar 2017-2021 yillarda tuman infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida belgilab berilgan. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va liberallashtirish yanada yaxshilangan.

Yil davomida tumanda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 99,9 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 102,9 foizga chakana tovar aylanishi 99,5 foizni tashkil qilgan.[11] Erishilgan mahalliy byudjetdan daromadlaridan: Zomin tumani madaniyat sohasiga, ijtimoiy himoya xarajatlariga, iqtisodiy xarajatlarga, qishloq xo'jaligi vazirligi tashkilotlariga, obodonlashtirish ishlariga, davlat hokimiyati boshqaruv organlarini saqlashga doir xarajatlarga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga, zaxira jamg'arma xarajatlariga ma'lum miqdordagi mablag'lar ajratilgan.

"Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da tuman aholisining iqtisodiy muammolari chuqur o'rganilgan. Tuman aholisi bilan muloqot davomida ichki yo'llarni ta'mirlash masalalariga oid 150 dan ortiq murojaatlar kelib tushganligi bois, 2018-yil mahalliy byudjet va respublika yo'l jamg'armasi hisobidan mablag' ajratish rejalashtirilgan. Bu davrga kelib Zomin tumani 4 ta sektor[12]ga bo'linib, ijtimoiy-iqtisodiy ishlar amalga oshirilgan. Ushbu yangi tizimning bir qancha ijobiy tomonlari namoyon etilgan. Masalan, 4 ta sektor rahbari, o'ziga birlashtirilgan hududdagi jamiki masala va muammolarni chuqur hal etishga uringan. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy masalalar bo'lsin, ishsizlik, ijtimoiy himoya, yangi tashabbuslar barcha-barchasi aholi xonadonlariga tashrif buyurilib o'rganilgan. Shuningdek, yil davomida "Zomin farm erkin iqtisodiy zonasi" tashkil qilinib, ushbu hududda 2028-2029 yillarda qiymati 185 mln dollar bo'lgan 6 ta farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar barpo etish va yangi ish o'rinlarini joriy etish belgilangan.[13]

Zomin tumanida 2018-yilda jami 63 ta 320 mlrd so'mlik, shundan sanoatda 221 mlrd so'm, 1,5 mln dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, qishloq xo'jaligiga 82 mlrd so'mlik, xizmat ko'rsatish sohasida 16 mlrd so'mlik loyihalar amalga oshirilgan bo'lib, 734 nafar yangi ish o'rinlari yaratilgan.[14] 2018-yilning respublikamizda "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash" yili deb nomlanishi sababli, tumanning tadbirkorlikdagi imkoniyatlarini o'rganish, mavjudlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatiga asossiz aralashuvlarga chek qo'yish, mavjudlarini yangi ish o'rinlarini yaratish va bu orqali aholining shaxsiy daromadini oshirish, natijada ularning farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan. Berilgan imkoniyatlar natijasi o'laroq, "Zomin asl ipak tolasi" korxonasi to'la quvvatda ish boshlashi evaziga, yiliga 400 tonna pillani qayta ishlash va xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yangi korxona ishga tushishi bois, 130 dan ortiq yoshlar ish bilan ta'minlangan.[15]

2019-yil Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Zomin tumaniga tashrifi, tuman soha mas'ullariga yangi topshiriqlarni yuklagan. Jumladan, yangi ish o'rinlari yaratish salmog'ini oshirish, investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish, oilaviy va yakka tartibdagi tadbirkorlikni taraqqiy toptirish, ijtimoiy bozor infratuzilmasini jadallashtirish kabilar.

Berilgan topshiriqlardan tegishli amaliy ishlar qilingan, Masalan, tumanda xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirilib, tuman salohiyatini targ'ib qilish borasida Turkiya, Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya davlatlaridan kelgan tadbirkorlar bilan amaliy ishlar olib borilgan. Natijada 11 ta loyihalarda 2019-2021 yillarda jami 11 ta loyihalarda 93,6 mln dollarlik, jumladan 2019-yilda 2 mln dollarlik o'zlashtirilib, 4 ta loyihalar amalga oshirilgan. Jumladan, Xitoyning, "Long sheng" kompaniyasi bilan farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha loyiha qiymati 70 mln dollarlik loyiha, Xitoyning "Bay teya" kompaniyasi bilan choy yetishtirish va ishlab chiqarish bo'yicha qiymati 10 mln dollarlik 1 ta loyiha, Turkiyaning "Dal tek mashina" kompaniyasi bilan qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha loyiha, Rossiyalik hamkorlar ishtirokidagi "AAA компани" bilan turizm sohasida 1 ta loyiha, Janubiy Koreyaning "Ukor Zomin" kompaniyasi bilan tibbiyot texnikalarini ishlab chiqarish bo'yicha bitta loyiha, bundan tashqari tumandagi "Komil yagona f/x da Xalqaro Moliya institutining 300 ming dollarlik grant mablag'i hisobidan quyosh panellarida elektr energiya ishlab chiqarib, yer qaridan suv chiqarib, tomchilatib va yomg'ir latib sug'orish tizimi joriy etilgan, Shuningdek, kelgusida "Даичи" korxonasida qishloq xo'jalik texnikalarini ishlab chiqarish bo'yicha 5 mln dollarlik, "Zomin sement" korxonasida esa sement ishlab chiqarish bo'yicha 20,7 mln dollarlik, "Zomin maxsus plita" korxonasida qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha 6 mln dollarlik, "Zomin teks eksport"da sun'iy tola ishlab chiqarishda 3 mln dollarlik, "Rostok investment" MCHJ da keng maydonli issiqxona qurilishida xorijiy investitsiyalar jalb qilingan.[16]

Zomin tumanida 2019-yilda erishilgan mahalliy byudjet mablag'lari: aholining ichimlik suvi, elektr energiyasi, yo'l ta'mirlash, umumta'lim maktablari rekonstruksiya, tibbiyot muassasalari ehtiyoji, obodonlashtirish ishlari, irrigatsiya va melioratsiya va boshqa jamoat ishlari uchun ajratilgan.

2020-yilda boshlangan pandemiya tuman iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Shunga qaramay, hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarning rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish ishlari nazoratga

olingan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, shu orqali hududdagi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash asosiy vazifaga aylantirilgan.

Karantin sharoitini hisobga olib, har bir sektor boshlig'i tumandagi ehtiyojmand oilalar holidan xabardor bo'lib turgan. Jumladan, 10 dan ortiq QFY lardagi muhtoj xonadonlarga turli dori-darmon va oziq-ovqatlar yetkazib turilgan. Og'ir vaziyatga qaramay, tuman iqtisodiyotini ko'tarish yo'llari izlandi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning "2 ta ish o'rni yaratgan tadbirkorni yelkamda ko'taraman" degan buyuk g'oyasi asosida tumanda tadbirkorlarga, shuningdek, xorijiy investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bosh maqsadga aylandi.

Yangi loyihalar amalga oshirilishi natijasida sanoat sohasida yiliga 5 ming tonna kalava ip, 1000 tonna trikotaj mato, farmatsevtika, qurilish va mebel mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.[17] Islohotlar samarasi o'laroq, 2020-yil Zomin tumani hududida bir qancha sanoat zonalarini tashkil topgan. Chunonchi, Sh.Rashidov mahallasida "Zomin" va Dashtobod shahrining Paxtakor mahallasida "Dashtobod" kichik sanoat zonalaridir. Bu hududlar bevosita tuman iqtisodiyotining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, tumanning boshqa mintaqalariga tajriba va namuna bo'lib xizmat qilgan. Bu yillarda o'sish, ichki import harqalay qoniqarli bo'lgan bo'lishi mumkin, ammo, chetga eksport qilish talab darajasida bo'lmagan.

2021-2024-yillarga mo'ljallangan "Zomin tumanida Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasi doirasida mablag'lardan foydalanish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan bo'lib, unga muvofiq tuman aholisining iqtisodiy ehtiyojlari, ijtimoiy muammoli masalalarni hal etish, qurilish va obodonlashtirish ishlariga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, kambag'allikni qisqartirish borasida ko'pgina tashkiliy ishlar amalga oshirilgan. Ehtiyojmand oilalar "Ayollar daftari", "Temir daftar" ga kiritilib, "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi tomonidan mazkur daftarga kiritilgan oilalarga yordamlar ko'rsatib kelingan. Eng muhimi, ularga iqtisodiy o'sishlari uchun doimiy tushuntirish ishlari olib borilgan. Natijada, aksariyatining holati yaxshilanib bu daftardan chiqqanliklariga ham ma'lumotlar ko'p.

2021-yil yakuniy iqtisodiy hisobotlarga ko'ra, yil boshidagi rejalar va byudjet prognozi to'liq bajarilgan, va doimiy katta e'tibor, yana tuman sanoat ishlab chiqarish salohiyati, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, mahallalarda oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, chet el investitsiya qamrovi, tumandagi ehtiyojmand oilalar iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilashga qaratilgan.

Keyingi yillardagi qilinajak ishlar 2022-2026 yillarga mo'ljallangan, Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan "Taraqqiyot strategiyasi" ga asoslangan holda davom ettirilmoqda. Iqtisodiy prognozlar yil yakuniga borib, bajarilib, "Har bir hudud – bir mahsulot", "Har bir oila – tadbirkor" dasturlariga tayanib, amaliy ishlar qilingan. 2022-yil 53 ta oila qolgan bo'lib,[18] bu oilalar asosan, nogironligi bor, boquvchisini yo'qotgan yoki yolg'iz keksalar bo'lib, ular holatidan doimiy xabardor bo'lib turilgan va iqtisodiy yordamlar ko'rsatilgan.

2023-yilga kelib, tuman iqtisodiyotini ko'tarish maqsadida, islohotlarni mahallalardagi oilalarda boshlash kerakligi hisobga olinib, kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-459-sonli qarori"[19] ijrosini

ta'minlash maqsadida, "Jizzax organik" MCHJ XK "Go'sht sut yo'nalishidagi chorvachilik loyihasida" 2023-yil davomida 15 mln dollarlik xorijiy investitsiya kiritish belgilangan. 2023-yil yanvar-may oylarida 3.8 mln dollarlik mahsulotlar eksport qilingan.

2024-yilda tumanga ajratilgan xorijiy investitsiyalar, asosan, turistik yo'nalishdagi obyektlar qurish va ulardagi xizmat sifatini yaxshilash ishlariga sarflangan.

Zomin tumani mahallalaridagi aholi kambag'allik darajasini kamaytish va oilaviy tadbirkorlik orqali mahsulotni ichki eksportga yo'naltirish ishlarida, shuningdek, ishsizlikni cheklash ishlarida "Mahalla yettiligi"ning ahamiyati beqiyos bo'lgan. Chunonchi, hokim yordamchilariga hududlardagi ishsizlarni ish bilan band qilish bo'yicha topshiriqlar berilgan. Ammo, jarayonda kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Jumladan, hokim yordamchisi tomonidan, ayrim hududlarda ishsizliklar bartaraf etilgan bo'lsa, ba'zi hududlarda bu ko'rsatkichlar juda past holatda ekanligi aniqlangan.

Xulosa qilib aytish joizki, Zomin tumanining 2013-2024 yillardagi iqtisodiy o'sish jarayonlari xilma-xil bo'lishi bilan birga, sohada zaruriy vazifalar hozirga qadar ko'p. Shu o'rinda tizimda muammolar ham mavjud. Lekin, soha mutasaddilari yilma-yil tahlillarga tayanib aytadigan bo'lsak, hukumat miqyosidagi qonun, qaror va topshiriqlarning tumandagi to'liq ijrosini ta'minlashga harakat qilganlar. Zomin iqtisodiyotining asosiy tarmog'i: qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, eksportini oshirish, sanoatda ishlab chiqarishni yaxshilash bilan bir qatorda, so'nggi yillarda xorijiy investitsiyalar turistik zonalar qurilishiga yo'naltirilib, chet el va mahalliy sayyohlar oqimini oshirish, sifatli servis ko'rsatish va bu orqali maqbul daromad qilishga harakat qilinmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sharof Rashidov tumani davlat arxivi. Fond-M-440, ro'yxat -23, yig'ma jild-5, varaq-14.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasining 2013-yilgi investitsiya dasturi to'g'risida"gi qarori//lex.uz
3. Sharof Rashidov tumani davlat arxivi. Fond -M-440, yig'ma jild - 23, ro'yxat- 9, varaq-43.
4. Sharof Rashidov tumani davlat arxivi. Fond -M-440, yig'ma jild - 23, ro'yxat- 51, varaq-19.
5. Sharof Rashidov tumani davlat arxivi. Fond -M-440, yig'ma jild - 24, ro'yxat- 2, varaq-5.
6. Sharof Rashidov tumani davlat arxivi. Fond -M-440, yig'ma jild - 23, ro'yxat- 51, varaq-18.
7. Jizzax viloyati davlat arxivi. Fond -M-440, yig'ma jild - 26, ro'yxat- 1, varaq-12.
8. "Ulkan imkoniyatlar zamon"//Sharq tonggi gazetasi. №25(7528). 2016-yil.3-b.
9. Jizzax viloyati davlat arxivi. Fond -M-440, yig'ma jild - 2, ro'yxat- 23, varaq-47.
10. 2017-yil 14-yanvardagi majlisida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" - nomli ma'ruzasi//president.uz.
11. Jizzax viloyati davlat arxivi. Fond -M-440, yig'ma jild - 4, ro'yxat- 25, varaq-114.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi "Hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3182-sonli va Jizzax viloyat hokimining 2017-yil 11-martdagi 163-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Zomin tuman hokimligining 2017-yil 17-avgustdagi 1611-sonli qarori qabul qilinib, unga asosan tuman hududi 4 ta rahbarga bo'lib berilgan. Manba: Zomin tumani hokimligining joriy arxiv ma'lumotlari.
13. "Tuman hokimining bayram tabrigi"//Sharq tonggi gazetasi №44(7592).2017-yil.1-b.

14. Xalq deputatlari Zomin tumani kengashining 42-sessiyasi hujjatlari, 16-bet.//Zomin tumani hokimligining joriy arxiv ma'lumotlari.
15. "Aziz va yagonamsan jonajon O'zbekistonim"//Sharq tonggi gazetasi.Nº31(7626).2018-yil.1-b.
16. Xalq deputatlari Zomin tumani kengashining 42-sessiyasi hujjatlari 49-bet.//Zomin tumani hokimligining joriy arxiv ma'lumotlari.
17. Xalq deputatlari Zomin tumani kengashining 42-sessiyasi hujjatlari 6-bet.//Zomin tumani hokimligining joriy arxiv ma'lumotlari.
18. Jizzax viloyati davlat arxivi. Fond-M-496, ro'yxat-5, yig'ma jild-16. 108-varaq.
19. O'zbekiston Respublikasining 2023-2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-459-sonli qarori//lex.uz.
20. .
21. М.И.Калинин. Избранные произведения / Ващенко Ф.Г., Гуськова Л.И. и др. – Москва: Издательство политической литературы, 1975. – С. 29.
22. Минца И.И., Гапонско Л.С., Гимпельсона Е.Г., Кляцкина С.М., Соболева П.Н. Истрия СССР с древнейших времен до наших дней. Том VII. – Москва: Издательство Академии Наук СССР, 1963. – С. 495.
23. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. III жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б.284 –285.
24. Фрид Л.С. По истории развития политико-просветительной работы в РСФСР (1917 – 1929). –Ленинград: 1941. – С. 173-174.
25. Mahmud R. Gulsara // Guliston. – 1935. – № 8-9. – В. 54.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.